




## «KONSTITUTSIYA BAXTIMIZ QOMUSI»



MIRZAYUSUPOV SHOXRUH

IV SURXANDARYO AKADEMIK

LITSEYI HUQUQSHUNOSLIK

FANI O'QITUVCHISI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug‘ ajdodlarimizning asriy armonlari, bo’lgan erkin

hayot, farovon jamiyat va adolatli davlat barpo etishdek, eng ezgu tilaklari va ulug‘ orzularini o‘zida mujassam etgan Davlatimizning asosiy bosh qomusi hisoblangan konstitutsiyamizning paydo bo‘lishi, rivojlanishi bugungi kunda tutgan o’rni haqidagi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy davlat huquq insonparvar prinsip suveren yuridik saylov muhokama demokratiya vakillari xalq jamiyat qaror g□oyasi xalqaro normalar mahalliy milliy muxtor inkor yuksak poydevor

Mustaqillik tufayli davlat tuzimining o□zgarishi, davlatchilikning rivojlanishi yangi hokimiyat institutlari paydo bo□lishi konstitusiyaviy huquq modulida o□z ifodasini

topdi. Mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasining vujudga kelishida uning aniq ishlab chiqilgan loyihasi umum xalq tomonidan keng ma□noda muhokama qilinishi nihoyatda

muhim ahamiyat kasb etdi. Asosiy qomusimizni baholashda AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik Kengashi kabi nufuzli davlat va xalqaro tashkilotlarning olimlari faol qatnashdilar. Lekin hech kim, hattoki, bizni xush ko□rmaydigan kishilar ham uning demokratik mohiyatini inkor eta olmadi.



1992-yilda 8 - dekabrdan Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren davlat qaror topganligini yuridik jihatdan rasmiylashtirdi, Ozbekiston Respublikasi fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, o'zining

muxtor vakillari siyosida Ozbekiston Respublikasining mazkur konstitutsiyasini qabul qildi. Davlatning mustahkamlanishini hamda rivojlanishining huquqiy asosini tashkil etdi. Umuman olganda har bir davlatda konstitusiyaviy huquqning paydo bo'lishi o'ziga xos xususiyatlariga ega. Konstitutsiyamizning g'oyasi, asosiy prinsip

va

qidalar umume tirof etilgan xalqaro normalar bilan birga, xalqimizning ming yillar davomida shakillanib kelgan qadiriyatlarni ham o'zida mujassam etgan. Konstitutsiya o'z jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida vujudga kelgan huquqiy hujjat bo'lib u

dastlab faqat davlat tuzumini, hokimyat tashkil etish prinsiplarini belgilagan bo'lsa, keyinchalik esa insonlarning huquq va erkinliklari va burchlarini hamda ularning kafolatlarini, davlat organlari va fuqarolarning o'zaro munosabatini mustahkamlashni ko'zda tutdi. 1992-yilgi konstitutsianing tuzilishidan kelib chiqadi. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy tuzum asoslari, siyosiy tizimi, iqtisodiy negizi, tashqi siyosatning Konstitutsiyaviy prinsiplari o'z ifodasini topgan. Unda fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari burchlarini belgilovchi normalar aks ettirilgan. Konstitutsiya normalari davlat hokimiyati organlarini tashkil etish va ularning faoliyat prinsplarini mustahkamlaydi. Ozbekiston Respublikasi konstitutsiyasida saylov tizimiga aloqador bo'lgan asosiy normalar ham ifodalangan. Shuningdek mahalliy davlat hokimiyati asoslari, shuningdek sud hokimiyati prokuratura organlariga aloqador normalar ham aks ettirilgan. Konstitutsiyaviy huquq manbalari qatoriga davlat- huquqiy normalari aks ettirilgan qonunlar ham kiradi.

Konstitutsiyaviy huquqning o'ziga xos hususiyati shundan iboratki, konstitutsiyaviy huquqiy normalari yordamida inson jamiyat va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga soladi. Konstitutsiyaviy huquq normalari jamiyat va davlat o'rtaсидаги о'заро munosabatlarni tartibga solidi va keng ma'noda ta'minlaydi ham. Bundagi ustuvor yo'naliishlarni va oliy qadiriyatlarni aniqlaydi va konstitutsiyaviy amaliyotni belgilab beradi.

O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suverenitetiga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'sulyatni

keng ma'noda anglagan holda O'zbekiston davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatligini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e'trof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, Mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohatlarimiz zamirida asosiy qomusimizning bir qancha qoidalari xizmat qilmoqda desak, hech ham xato qilmagan bo'lamiz. Konstitutsiya, avvalo, millatning yuzi, xalq erkining ifodasi, jamiyat taraqqiyotining asosidir. Tom ma'noda demokratik tuzimni barpo etish maqsadida qabul qilingan. Shu bilan birga, barcha mamlakatlarning konstitutsiyaviy huquqiga hos bir qator umumiyl jihatlar ham mavjud. Konstitutsiyaviy huquq tarkiban uch elementdan tashkil topgan: birinchidan, konstitutsiyaviy -huquq normalari; ikkinchidan,

konstitutsiyaviy -huquq prinsplar; uchinchidan, konstitutsiyaviy huquq institutlar; Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan ◻ Har bir shaxs mulkdor bo'llishga haqli ◻ hamda

◻ Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ◻ degan normalarni amalda ro'yobga chiqarish maqsadida yangi institut ◻ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilik instituti ta'sis etildi

Konstitutsiya-davlatning asosiy Qonuni boilib, davlat hokimiyatini tashkil etishni va hokimiyat, jamiyat va shaxsning ozaro munosabatlarini tartibga soladi. O'zbekiston

Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingunga qadar 3 ta konstitutsiya qabul qilingan «Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir. Shu manoda asosiy qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Bir soz bilan aytganda, Konstitutsiyamiz tom manoda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir». O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasining asosiy mavzusi inson huquqlari boilib, xalqimiz va davlatimiz ana shu masalada inson huquqlariga sodiqligini e'lon qiladi. Konstitutsiya fuqaro, jamiyat va davlat hokimiyati ortasidagi munosabatlarni belgilovchi oziga xos

ijtimoiy shartnomadir. Konstitutsiya fuqarolarning umumiylengen huquqliligi, fuqaro va davlat ortasidagi munosabatlarda ozaro masulligi g'oyasiga asoslanadi. Konstitutsiyaviy qoidalar shaxs va davlatning ozaro munosabatlari qanday shakllanishi lozimligi va bu inson hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunib olishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shaxs va davlat ortasidagi ozaro munosabatlarning huquqiy tartibini belgilab beradi. Bunga ko'ra xalq, jamiyat, shaxs huquqi va manfaati birinchi orninga qo'yildi. Konstitutsiya inson va

fuqarolarning hokimiyat tomonidan kafolatlangan huquqlarini mustahkamlaydi va ana shu huquqlarga mutanosib tarzda davlat hokimiyatini cheklaydi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiya davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishining huquqiy rasmiylashtirilishi boilib, bu hokimiyatning fuqarolik jamiyatni boshqa subyektlari bilan munosabatini tartibga solidi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy huquqiy tafakkurining yuksak namunasi boilib, u hech kimga qaram

bo□lmasdan, erkin va ozod, tinch osoyishta, farovon yashashimizning qonuniy kafolati bo□lib kelmoqda.

Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo□lib xizmat qilib kelmoqda .Bugungi kunda konstitutsiyaviy huquq tizimini yanada tubdan takomillashtirish asosida fuqarolarning qonun bilan qo□riqlanadigan huquq va manfaatlarini keng ma'noda ximoya etgan xolda konstitutsiyamiz asosida mamlakatimiz rivojlanish yo'lidagi ustuvor yo'nalishlar asosida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2013-yil. Husanov O.T. "Konstitutsiyaviy huquq". "Adolat" nashriyoti.
2. 2001-yil. A. Azizzxo'jayev, O. Xusanov, X. Azizov. "Konstitutsiyaviy huquq" izohli lug'at. Toshkent "Akademiya" nashriyoti
3. 2013-yil. A. Azizzxo'jayev, O. Xusanov, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh". Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti
4. 2016-yil. Sh.M.Mirziyoyev "Qonun Ustuvorligi Va Inson Manfaatlarini Taminlash Yurt Taraqqiyoti va Xalq Farovonligining Garovi" -T.: "O'zbekiston" nashriyoti
5. Kun.uz